

DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARNI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TUZATISH

Ochilova Shaxnoza Parmonovna

Qorako'l tuman 37-maktab psixologi

Annotatsiya: ushbu maqolada deviant xulq-atvorli o'quvchilarni o'rganishdagi murakabliklar, o'smirlarni tuzatish uchun turli xil yondashuvlar, pedagog hodimlar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalar va maslahatlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, psixologik aralashuv, psixologik maslahat,
korrektsiya, art-terapiya, metodologiya, psixologik-pedagogik ish texnikasi.**

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CORRECTION OF ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Ochilova Shakhnoza Parmonovna

Psychologist of Karakul district school No. 37

Annotation: this article discusses the complexities of studying students with deviant behavior, various approaches to correcting adolescents, practical recommendations and advice for teachers and psychologists.

Keywords: deviant behavior, psychological intervention, psychological counseling, correction, art therapy, methodology, psychological and pedagogical work techniques.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КОРРЕКЦИЯ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Очилова Шахноза Пармоновна

Психолог школы №37 Каракульского района

Аннотация: В статье рассматриваются сложности изучения учащихся с девиантным поведением, различные подходы к коррекции подростков, а также практические рекомендации и советы педагогам и психологам.

Ключевые слова: девиантное поведение, психологическое вмешательство, психологическое консультирование, коррекция, арт-терапия, методика, приемы психолого-педагогической работы.

Ma'lumki har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va axloqiy tamoyillar, odatlar, jamoatchilik fikri, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariiga ega. Shular asosida jamiyatda bo'layotgan voqealarni yaxshi yomonga, to'g'ri noto'g'riga ajratamiz. Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi bo'lib unga tashqi muhitdan kelayotgan ta'sirlarning obyekti hisoblanadi. Har bitta shaxsning xarakter xususiyatlari bunday vaziyatlarda turlicha namoyon bo'ladi. O'smirlik davri yosh davrlari orasida eng ahamiyatli davrlardan biridir. Chunki shaxs shakllanishidagi asosiy davr hisoblanadi. O'smirlik davri psixologik adabiyotlarda "o'tish davri", "og'ir davr", "inqiroz davri" kabi nomlar bilan ataladi. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr taxminan bolaning 5-11 sinflarda o'qish paytiga to'g'ri keladi.

Bugungi kun muammolaridan biri ham o'smirlarning xulq-atvori uning xarakterini rivojlantirishning murakkab jarayonining tashqi ko'rinishidir. Jiddiy xatti-harakatlarning buzilishi ko'pincha bu jarayondagi og'ishlar bilan bog'liq. Ko'pincha bolalarning bu davrda emotsiyal rivojlanishi buziladi va ularning xatti-harakati qiyinlashadi. Shu munosabat bilan psixologik rivojlanishning asoratlari ko'pincha paydo bo'ladi. Ushbu asoratlarning aksariyati psixologik kasallikning alomati emas, balki faqat normadan og'ishdir, bu normadan og'ishni deviant xulq-atvor deb ataymiz. Deviant xulq-atvor bu umumiyl qabul qilingan yoki nazarda tutilgan me'yordan chetga chiqadigan harakatlar tizimidir (ruhiy salomatlik, huquq, madaniyat, axloq normalariga rioya qilmaslik). Deviant xulq-atvor tajovuzkorlik, sadizm, o'g'rilik, yolg'onchilik, sargardonlik, tashvish, tushkunlik orqali namoyon bo'ladi. Bunday xulq-atvorga ega bo'lgan o'smirlar ko'pincha o'zlarini jamiyatdan maqsadli ravishda ajratib qo'yishadi, o'z joniga qasd qilishga urunishadi, turli xil fobiyalardan aziyat chekishadi. Tadqiqotchi K.E.Igoshevning ta'kidlashicha, "Bolalar va o'smirlar ayniqsa, o'smir va o'spirinlarning yosh va o'tish davri xususiyatlari impulsivlik, qo'zg'aluvchanlik holatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Impulsiv xatti-harakat birinchi navbatda o'ziga xos affektiv

kechinmalar tufayli yuzaga keladigan affektiv holatni ifodalaydi. Bunday holat mazmunida qisqa muddatli va kuchayib boruvchi emotsiional hissiyotlar yotadi”.

Deviant xulq-atvorni o‘rganish bo‘yicha bir qancha fanlarda xususan, sotsiologiya, huquq, tibbiyat, psixologiya, pedagogika va boshqalarda ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli o‘quvchilar bilan ishlash dolzARB masalardan biridir chunki, deviant xulq-atvor psixologiyasiga ko‘ra, bu ma’lumotlar ularga ta’sir qilishning samarali texnologiyalari yetarli emas. Bundan tashqari, diagnostika ishlarini olib borishda ham qanday usullardan foydalanish samara berishi haqida fikrlar yetarli emas. L.S.Vigotskiy fikricha o‘s米尔 xayoti qiyin munosabatlar xarakterini yig‘indisidir. Bular avalo qaysar, injiq bo‘ladilar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir deb ta’kidlagan. Ularning malum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bo‘ladilar. Hozirda maktab psixologlari va pedagoglari uchun deviant xulq-atvorli o‘s米尔lar bilan ishlash uchun reabilitatsiya va profilaktika ishlarini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi. Maktab hodimlari tomonidan avvalo o‘quvchilarga voyaga yetmagan shaxslarning davlat va jamiyat tomonidan axloqiy normalarni bajarishga taqdim etilgan huquq va majburiyatlar haqida xabardor qilishlari, ular bilan profilaktik tadbirlar xususan nohush holatlarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallash, bolani jamiyatdagi faol hayotga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Reabitatsiyaning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Bularga:

-psixologik;

-pedagogik;

-kasbiy;

-ijtimoiy-iqtisodiy;

-maishiy kabi turlari mavjud.

Tarbiyasi qiyin bolalarni realibilitatsiya qilish jarayonida tarbiya muassasalari katta ahamiyatga ega. Maktab tibbiy-psixologik-pedagogik realibilitatsiya xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalar va o'smirlar rivojlanishidagi o'zgarishlar sabablariga aniqlik kiritish;
- ularni bartaraf etish vositalarini qidirib topish;
- ta'lim-tarbiya, yashash sharoitlarini sog'lomlashtirish;
- normal shaxs rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik jarayonni tashkil qilish;
- tavakkal guruhi bolalari va o'smirlarini o'z vaqtida aniqlash;
- o'smirlarning ruhiy inqirozini yengib o'tish;
- maxsus reabilitatsion dasturlarni amalga oshirish orqali muhtojlarga har tomonlama yordam ko'rsatish.

Maktab psixologi faoliyatida xulq-atvori og'ishgan bolalar bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. O'qituvchi yoki ota-onalar psixologga "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar" o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatish lozimligi to'g'risida ma'lumot berishni iltimos qiladilar. Bunda "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar" orasiga har xil o'quvchilar kiritiladi: o'zlashtira olmovchilar, tartibsizlar, har xil asab va psixik buzilishga chalingan bolalar ishi bo'yicha hay'at hisobida turuvchi o'smirlar, notinch oilaning farzandlari. Bu esa "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan" o'quvchilar bilan psixologik va pedagogik ish olib borishda ularga mos metodlarni tanlash muammosini yanada qiyinlashtiradi. Hozirgi vaqtida "ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan" o'smirning shaxsiy taraqqiyoti, uning xulq-atvorini tuzatish va aniqlash bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q. Mavjudlarining har biri o'zining kuchli va kuchsiz tomonlariga ega bo'lib, amaliy ishda ularning birini tanlash ko'p holatlarga jumladan, psixologning kasbiy tayyorgarligiga, aniq holatning xususiyatlariga bog'liq. Har bir o'smir bilan muloqotda uning shaxsidagi eng yaxshi tomonlarini topa olish, nimaga qobiliyatli ekanini aniqlab olish hamda mana shularga tayangan holda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlash g'oyat muhimdir. Aks holda tarbiya sohasida katta qiyinchiliklar chiqishi muqarrardir. O'smir o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning ko'z o'ngida o'z shaxsining mustaqilligini tasdiqlash, o'zligini bildirib, o'z "men"ni anglatish maqsadida u yoki bu darajada o'z imkoniyatlaridan

tashqari ishlarga qo‘l urishga va shu orqali o‘z shaxsining ta’sirini atrofdagi kishilarga o‘tkazishga harakat qilib ko‘rishga majbur bo‘ladi. Basharti, bola o‘zini ijobiy tomondan ko‘rsatishning iloji topa olmasa, u holda psixologik zarurat tufayli salbiy ishlarda o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. O‘z kamchiliklarini oshirib ko‘rsatadi, o‘jarlik va qaysarlik qiladi, har xil harakatlar ko‘rsatadi. O‘qituvchi mazkur yoshda bolaning o‘z-o‘zini hurmat qilishga o‘rgatish tuyg‘usini shakllantirish muhim ekanligini hisobga olib, o‘quvchining sinf va umumjamoa oldidagi obro‘sini ko‘tarish yo‘llarini izlashi kerak. Buning uchun o‘qituvchi bolaning u yoki bu sohadagi yutuqlarini ko‘pchilikka ma’lum qiladi, uning ayrim kamchilik va xatolarini yo‘qotishda donolik bilan ish tutib, ularni darrov ko‘pchilikka oshkor qilmay, o‘smir bilan suhbatlashib, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonishini amalda ko‘rsatadi, bu bilan o‘smirda shakllanib kelayotgan “katta kishi” bo‘lib qolganlik tuyg‘usini hurmat qilishini bildiradi. Bunday qo‘llab-quvvatlashning kerakligini yaxshi his qilgan o‘smir beixtiyor o‘qituvchining ta’siriga beriladi, chunki pedagog o‘smirning munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda uning uchun zarur kishisiga aylanib qoladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, deviant xulq-atvorli o‘smirlar bilan ishlashda maktab tizimidagi ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya “ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo‘lgan” bolalar va o‘smirlarga nisbatan oilaviy va maktab repressiyalarini oldini olishga, nizoli vaziyatlarni hal qilishga, shuningdek, esa ularni o‘quv faoliyatining sub’ekti sifatida tiklashga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Olimov L.YA., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va coping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

2. Olimov L.YA., Eshov E.S. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. “Durdong” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.

3. N.G'.Komilova. Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2013.
4. Yadgarova G.T., Avlayev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo'llanma) T.: 2007 y.
5. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2007.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.